

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**PSIXOLOGIYA TA‘LIM YO‘NALISHI II KURS TALABASI  
TILAVOV MUXTOR HASAN O‘G‘LI**

# **REFERAT**

**MAVZU: SOTSIAL MUNOSABATLAR VA SHAXSLARARO  
MUNOSABATLAR**

**Buxoro – 2016**

**MAVZU: SOTSIAL MUNOSABATLAR VA SHAXSLARARO  
MUNOSABATLAR**

**REJA:**

**KIRISH**

**I BOB. MUOMALA TUZILMASINING O‘RGANISH PSIXOLOGIK  
MUAMMO SIFATIDA**

- 1.1. Psixologiyada muomala muammosining ilmiy- amaliy tadqiq etilganligi
- 1.2. Muomala turlari va ularning faoliyatdagi ahamiyati

**II BOB. MUOMALANI XORIJIY VA RESPUBLIKA OLIMLARI  
TOMONIDAN O‘RANILGANLIK DARAJASI**

- 2.1. Muomala va bilish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi
- 2.2. Muomala tuzilishining o‘rganilishi (L.S.Vigotskiy talqinida)

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

Prezidentimiz I.A.Karimov «Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch» asarida “Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e`tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir” – deb ta`kidlaganlar.

Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog`lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e`tibor berilmoqda. Ta`lim jarayonida pedagog bilan o`quvchilarning o`zaro hamkorlik faoliyatiga xos ijtimoiy psixologik uyg`unlikni tashkil etish, ta`lim subyektlarini mustaqil, ijodiy fikrlashga o`rgatish ularning kasbiy tayyorlash muhitini takomillashishi va yuksalishiga olib keladi. Zero, ontogenetik rivojlanishning o`smirlik davri eng murakkab hamda psixologik inqirozlar bilan uyg`unlashib ketgan, quvvati yuqori, shijoatli, yangilikka chanqoq, olamni o`zlashtirishga intiluvchan, mustaqillikka moyil, egiluvchan, xulq-atvorida ijtimoiy me`yorlarning shakllanishi jadal sur`at bilan kechadigan davr bo`lib hisoblanadi.

Respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da mazkur muammoga alohida e`tibor qaratiladi. Xuddi shu sababli, ta`lim jarayonida o`qituvchi bilan o`quvchilar o`rtasidagi munosabatlar hamda psixologik hamkorlik faoliyatining yangi bir bosqichga o`tib borayotganligini ta`kidlash mumkin. Barkamol avlod kamoloti g`oyasini turmushga tatbiq etish uchun istiqbolning dastlabki kunlaridanoq milliy ma`naviyat, milliy ta`lim va tarbiya masalalari yetakchi muammolardan biri hisoblanmoqda. Ma`lumki, ta`lim-tarbiya ongning mahsuli va ongning darajasi bo`lish bilan birga ongning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Xuddi shu bois mamlakatimizda «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning ikkinchi sifat bosqichida zukko, o`ta zehni, kuchli intellektual potentsiya egasi, bunyodkor va ijodiy faol, shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy, siyosiy hayotda mustaqil ravishda o`z yo`lini, o`rnini topa oladigan, istiqboldagi vazifalarni oldindan ko`ra bilib, ularni hal etishda va mustaqil qaror qilishga qodir bo`lgan yoshlarni voyaga yetkazish asosiy vazifa qilib qo`yiladi.

## **I BOB. MUOMALA TUZILMASINING O'RGANISH PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

### **1.1. Psixologiyada muomala muammosining ilmiy- amaliy tadqiq etilganligi**

Muloqot psixologiya fanining eng muhim tushunchalaridan biridir. Ijtimoiy psixologiyada esa muloqot muhim o'rinlardan birini egallaydi. Muloqot "faoliyat" tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Muloqot faoliyat turlaridan biri sifatida qaraladi. Muloqot birgalikdagi faoliyatga bo'lgan ehtiyojlar tufayli tug'iluvchi jarayondir. A.V.Petrovskiy ta'biri bilan aytganda, muloqot - birgalikdagi faoliyat ehtiyojlari natijasida vujudga keluvchi, kishilar o'rtasida aloqa o'rnatish va rivojlantirishning ko'p qirrali jarayonidir. Biroq muloqot faqat birgalikdagi faoliyatga ehtiyoj tufayli tug'iluvchi jarayon emas, balki u shahslararo o'zaro ta'sir jarayoni hamdir.

Muloqotning tuzilishini kognitiv - ahborot, boshqaruvchanlik, affektiv - empatiya, ijtimoiy - perseptiv tomonlar tashkil etadi. Har qanday faoliyat ham ijtimoiy tabiatga ega va kishilar o'rtasida turlicha taqsimlangan. Shu sabab faoliyatni tashkil etish uchun kishilar o'rtasida muloqot bo'lishi talab qilinadi. Aynan kattalar bilan bo'ladigan muloqot tufayligina bola ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtiradi. Muloqot kishilarning har qanday o'zaro ta'siri emas, balki shunday o'zaro ta'sirki, bu jarayonda uning har bir qatnashchisi faol bo'lib, sub'ekt sifatida, shahs sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot insonning o'ziga hos ehtiyojini, boshqa zaruriyatlari oziq-ovqatga, issiqlikka, taassurotlarga, faollikka, havfsizlikka intilish kabi ehtiyojlardan farqlanuvchi ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Namoyon bo'lgan ehtiyoj o'zini va boshqa kishilarni shahs sifatida anglashga, ya'ni boshqa kishilarga va o'z - o'ziga baho berishga qaratilishida ifodalanadi. Shuning uchun bunda ohirgi psixologik mahsulot - boshqa kishining va o'zining obrazi bo'lib, shu tufayli inson faoliyatini boshqaradi. Shunday qilib, muloqot kishilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning muhim shakli bo'lib hisoblanadi. Muloqot-bu kishilar o'rtasidagi aloqa. Bu aloqa natijasida bir kishining boshqa bir kishiga ta'sir etishi amalga oshiriladi.

Muloqot yordamida kishilar turli hil faoliyatni tashkil etadilar, ahborot almashinadilar, o‘zaro bir-birini tushunishga erishadilar. Birgalikdagi faoliyat muloqot bo‘lishini talab etadi. Aynan birgalikdagi faoliyatda inson boshqa kishilar bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi, ular bilan turli - tuman aloqalar o‘rnatadi, zarur natijaga erishish uchun birgalikda harakatlar qiladi. Bu erda muloqot faoliyatning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Faoliyatning barcha turlarida muloqot uni rejalashtirishni, amalga oshirish va nazorat qilishni ta’minlaydi. Muloqot shahsning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Muloqotciz shahsning tarkib topishi, shakllanishi mumkin emas. Aynan muloqot jarayonida tajriba o‘zlashtiriladi, bilimlar to‘planadi, amaliy ko‘nikma va malakalar shakllanadi, e’tiqod va qarashlarga erishiladi. Faqat muloqot jarayonidagina ma’naviy ehtiyojlar, ahloqiy, siyosiy va estetik hislar tarkib topadi, harakter shakllanadi. Muloqotning maqsadi va uning qay darajada amalga oshirilishiga ko‘ra samaradorligi haqida fikr bildirish mumkin. Ya’ni muloqot ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning qondirilishi, muammo echimi bilan bog‘liq vazifalarning bajarishiga asoslanib, muloqotning samarali yoki samarasizligi to‘g‘risida hulosa chiqarsa bo‘ladi. Shahslararo munosabat muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro bir-birlarini tushunishga olib kelsa, bunday o‘zaro munosabatlar samarali va foydali hisoblanadi. Muomalaga kirishuvchi tomonlarning o‘zaro bir-birlarini tushunishga olib keluvchi yo‘l yoki marom o‘z navbatida o‘sha shahslarning o‘zaro bir-birlarini mavqe bo‘yicha bilishni ta’minlaydi.

Muloqotning psixologik tizimidan shu narsa ma’lumki, uning uch asosiy qismi, ya’ni muomala sub’ektlarining o‘zaro bir-birlari bilan ahborot, hissiy kechinmalar va fikr almashinuvini ta’minlovchi kommunikativ, o‘zaro bir-birlarining hulq-atvorlariga ta’sirlarini belgilovchi interaktiv va bir-birlarini to‘g‘riroq, aniqroq idrok qilish va baholashlarini ta’minlovchi perseptiv tomoni mavjud. Ushbu tizimning har bir tomoni muomalaning zaruriy va muhim tarkiblari hisoblanib, uning uchinchi bo‘lagi shahslararo ta’sir o‘tkazish uchun juda muhim muomalaga kirishuvchi shahslar bir-birlarini yahshi tushunishlari uchun, avvalo suhbatdoshning o‘zi, hissiy kechinmalarini idrok qilgan holda fikran uning

mavqeida tura bilishi, o'zining uning o'rnida his qilib, o'zida hukm surayotgan his-tuyg'ular doirasida uning holatiga kirishga intilish (identifikasiya), qolaversa, bu jarayonda individual va ijtimoiy ongda mavjud bo'lgan mutlaq stereotip, ongda o'rnashib qolgan tasavvurlardan foydalanishi (stereotipizasiya) ushbu jarayon to'g'ri kechishini ta'minlab turadi. Lekin bu jarayonlar shunchalik tez va qisqa fursatda kechadiki, shahs ba'zan o'zidagi ana shunday qiyoslashlarni ongsiz ravishda, hayotiy tajriba orqali o'rnashib qolgan shablon -qoliplar asosida amalga oshiradi, shuning uchun ayrim hollarda muloqot samarasiz yoki hato kechishi mumkin. Ana shunday hatoliklarga olib keluvchi jarayon ijtimoiy psixologiyada kauzal atributsiya deb atalib, uning mohiyatini shahsning ko'pincha o'z hissiy kechinmalari va tasavvurlarida o'rnashib qolgan qoliplardan noto'g'ri foydalanish natijasi tashkil qiladi.

Shahsning yo'nalganligi kishining hayotiy rejalari, uning hayotiy faolligi darajasi va maqsadlarini belgilaydi. Shahsning yo'nalganligi harakterning yahlitligi, birligi, kuchi asosida yotadi. Shahsning yo'nalganligi insonning butun hatti-harakatlarida o'z aksini qoldiradi. Hulq - atvor faqatgina sabablar orqali emas, balki, munosabatlarning yahlit sistemasi orqali belgilansa-da, bu sistemada har qachon nimadir oldingi planga chiqariladi va bu, kishi harakteriga o'ziga hoslik bag'ishlaydi.

Muloqot jarayonining samaradorligini ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omillar ichida shahsning muloqot maromini egallash ko'rsatkichi muhim o'rin tutadi. Bu sifat muloqot savodsizligiga zid bo'lib, ohirgi hislat quyidagi omillarga bog'liq: 1) o'zgalar mavqeida tura olmaslik, ularning hissiy kechinmalari, tuyg'ulari va munosabatlariga befarqlik; 2) o'z his-tuyg'ulari va munosabatlarini boshqara olmasligi, o'z -o'ziga ma'suliyatning yo'qligi, o'z-o'zini tahlil qilish imkonining zaifligi; 3) suhbatda har bir inson uchun bir qarashda tabiiy hisoblangan nutq qobiliyatining yo'qligi, ya'ni fikr - mulohazalardagi mantiq va uzviylikning mavjud emasligi; 4) eshitish qobiliyatining kuchsizligi, ya'ni birovga murojaat ma'nosida gapirish qanchalik ijobiy fazilat va mas'uliyatli faoliyat bo'lsa, o'zgalarni, suhbatdoshni tinglash ham shahsdan qator sifatlarni talab qiladiki,

tinglay olish uquvi hamsuhbatni o'ziga og'dirishning muhim omilidir. Bu omillarning kuchiga e'tiborsizlik, o'zgarar mavqaida tura olmaslik-muomalada sub'ektiv hodisalarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, muloqot texnikasi deganda ushbu jarayonda bevosita ishtirok etayotgan yoki aniqroq qilib aytganda, qo'llaniladigan nutqiy verbal yoki nutqsiz - noverbal vositalar nazarda tutiladi. Ma'lumki, odamlar o'zaro muloqotga kirishganda, eng samarali va tabiiy so'zlashish vositasi bo'lmish nutqdan foydalanadilar, uning ta'sirchanligi va kuchi, tabiiyki o'sha so'zlovchilarning malakalariga, tajribasiga va hayotiy ko'nikmalariga, til boyliklaridan qay darajada omilkorona foydalana olishlariga bog'liq.

Muloqot san'ati bilan bir qatorda eshitish uquvi va texnikasi ham katta ahamiyatga ega. Zero, eshitish yoki tinglashning ham o'ziga hos nozik tomonlari mavjud. Avvalo, eshitish yoki tinglash gapirish uchun mavjud yoki tinglash esa - tushunish uchun darkor. Bu ikki holatda tinglovchining yuz ifodasidan tortib, tinglovchi suhbatdoshini fikr almashish uchun tinglaganda, uning diqqati shu darajada tarang bo'ladiki, natijada u to biror luqma yoki aniq bir fikr to'plamaguncha uni tinglayveradi.

Ikkinchi holat - ahborotni tushunish uchun tinglaganda esa emocional kechinmalar yoki luqmalar har bir fikrga aniqlik kiritish, uning mohiyatiga to'liq etib borish uchun ishlatiladi, bunda tinglovchining suhbatdoshga nisbatan mavqei oldingisidan ancha sust kechadi. Tinglash texnikasining ikki bosqichi farqlanadi; a) qo'llab-quvvatlash bosqichi va; b) sharhlash bosqichi. Birinchi bosqich asosan suhbatdoshga tashabbusni berish va uning fikrlarini ohirigacha bayon etishga imkoniyat berish bo'lib, bunda bir qancha vositalar qo'llaniladi. Bular - "aks sado" - har bir jumla yoki fikr ohirida uning ohirgi so'zlarini qaytarib turish; ma'qullovchi yoki e'tiroz bildiruvchi luqmalar, qaytariluvchi so'zlar bilan suhbatdosh fikrlarini hissiy ma'qullash. M: "qarang-a", "qoyil", "yo'g' - e" kabilar; "Chorlash va kuvvatlash" vositasi ham ayrim luqmalardan iborat bo'ladi, masalan, "keyin nima bo'ladi?", "yana-chi", "yashang" singarilar; "aniqlik kirituvchi savollar". M; "nima demoqchisiz?" yoki "aniq maqsadingiz nima ekan, o'zi?" va

hokazo. "Qo'shimcha luqmalar". Bunda gapning mazmunidan kelib chiqib, ayrim aniqliklar kiritiladi. Masalan: "men ham eshitgandim, qani qolganini eshitaylik!". Bunda tinglovchi tanqidiy mulohaza ham bildirishi mumkin, yoki aniq fikrni ma'qullaydi, e'tiroz bildiradi. Bundan tashqari, u tinglash jarayonida suhbatdoshining fikrlarini tahlil qilishi, maslahat bildirishi, suhbatdosh fikrlarini o'z so'zlari bilan qaytarishi yoki aytganlarning yo'nalishini o'zlashtirish maqsadida boshqa predmetga ko'chirishi yoki hazilga aylantirishi mumkin. Bular, suhbatning jonli, mazmunli, samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, muloqot uch hil yo'nalishda, ya'ni: 1)muloqot - inson faoliyatining mustaqil turi sifatida; 2) muloqot - inson faoliyati boshqa turlarining atributi sifatida; 3) muloqot - sub'ektlarning o'zaro ta'siri sifatida tushunilishi mumkin. Muloqot ko'p jihatdan muloqotning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari samarali qo'llanishiga bog'liq. Muloqotning bu muhim usullarini egallash, demak muloqot madaniyatini egallash, vaziyatlarni psixologiya yordamida boshqarishga o'rganishidir.

Muloqotning muhim ijtimoiy-psixologik mexanizmlari - ishontirish, taqlid, uqtirishdir. Ishontirish - u yoki bu mulohaza yoki hulosani mantiqiy asoslab berish jarayonidir. Ishontirish hamsuhbat yoki tinglovchilar ongini shunday o'zgartirishni nazarda tutadiki, u mazkur nuqtai-nazarni himoya etish va shunga muvofiq harakat qilishga tayyorlikni vujudga keltiradi. Ishontirish - shahs yoki guruhga ta'sir etish usuli bo'lib, u shahsning ham aqliy, ham hissiy sohalariga dahldor. Taklid qilish psihik ta'sirning bir turi sifatida asosan individ tomonidan hulq - atvor, hatti - harakat, yurish-turishning muayyan tashqi xususiyatlarini takrorlashga qaratilgandir.

Psihoterapevt V.L.Levi tashqi va ichki taqlidni ajratib ko'rsatadi. Ichki taqlidda boshqa odamning hulq - atvori va tuygulari mantiqi hissiyot bilan bilib olinadi. Boshqa odamga ichki taqlid qilinganda uning tashqi ko'rinishlari hisobga olinadi, albatta, lekin ular tabiiy bo'lib ko'rinadi. Murakkab psihik xususiyatlarga taqlid darhol, butunligicha amalga oshiriladi. Boshqalar bilan muloqotda bo'lganimizda ifodalashimiz mumkin bo'lganidan ancha ko'p narsani idrok etamiz



va his qilamiz. Uqtirishning mohiyati shundaki, tinglovchining gapirayotgan gapiga to'la va so'zsiz ishonchi mavjud, gapirayotgan odamning so'zlari tinglovchida gapirayotgan odam nazarda tutgan tasavvurlar, obrazlar va his-tuyg'ularni uyg'otadi, uyg'otilgan tasavvurlarning to'la ravshanligi va so'zligi shunday harakatlar qilish zaruratini keltirib chiqaradiki, bu tasavvurlar boshqa shahs vositasida emas, balki tinglovchining o'zida bevosita kuzatishi yoki bilib olishi orqali qilinadi. Shahslarning muloqotdagi o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayonlaridan biri sifatida uqtirish - ihtiyoriy va ihtiyorsiz, bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin.

## **Shaxslararo birgalikdagi xarakat va do'stona munosabatlar**

Birinchi toifadagi muloqot (faoliyatdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun axborot ayirboshlash, kommunikatsiya o'rnatish) bilan bir qatorda ikkinchi toifadagi muloqotning (o'zligingni boshqa kishilarda davom ettirish) mavjudligi xar bir kishining ikkinchisiga ko'rsatadigan ta'siriga e'tiborni jalb qiladi. Talim - bu avvalo axborot jarayonidir. O'qituvchi o'quvchiga bilimlarni malum qiladi va o'z navbatida teskari aloqa tarzida undan malum qilingan bilimlar qanday o'zlashtirilganligi xaqida tasavvur xosil qiladigan axborot oladi. O'zaro birgalikdagi xarakat moxiyatlar darajasida amalga oshiriladi.

Pedagog tarbiya vazifalarini amalga oshirarkan, o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'sir tarbiyalanuvchilar ko'rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o'zgarishini ttaqozo qiladi. Pedagog ko'rsatadigan ta'sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, uning o'zini davom ettirish, o'zining shaxsiyatiga oid mazmunlarni yoshlarga o'tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi aksi mujassamlashgandir.

Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish xosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi xis-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi xarakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining aloxida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro xamjixatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va xis-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi.

Do'stona muloqot o'rnatish va do'st tutinish muammosi o'spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanadi. Pedagoglarning kuzatishlari, o'spirinlarning sir saqlanadigan kundaliklari, ularning "Do'stlik va muxabbat to'g'risida"gi mavzularda o'tkaziladigan suxbatlarga qiziqishlari ana shundan dalolat beradi. Do'st orttirishga bo'lgan extiyoj o'spirinlik yoshi uchun xos xususiyat xisoblanadi.

O'spirin odatda do'stona muloqotning ulchovi xaqida yetarli darajada aniq - ravshan tasavvurga ega bo'lmaydi, bu yoshda u ko'proq intiladigan aloxida juftlashgan xolda do'stlashuvdan ko'ra ko'proq o'z tengdoshlari bilan kengroq manodagi muloqotga kirishishni taqozo etadigan o'rtoqlik ancha keng tarqalgan bo'ladi.

O'zaro do'stona yaqinlik belgisiga ko'ra birlashgan ulfatlar, tadqiqotlardan malum bo'ldiki, muayyan bir kasb atrofida guruxlar ajrala boshlaydi. Do'stlik muloqoti o'rnatgan va tariflangan bo'g'inlarda, eksperimentlar natijasida olingan malumotlarning guvohlik berishicha, yoshlarning o'zlari qaysi kasbni egallash niyatida ekanliklarini aniqlagan, bo'lg'usi kasb xaqidagi, uning imkoniyatlari va istiqbollari, unga tayyorlanish yo'llari kabilar xaqidagi axborot bilan bir-birlarini boyitgan xolda olib boradigan yashirin kasb tanlash ishi yuz beradi. O'spirinlarda juftlashgan tarzdagi do'stona muloqot andozasi, garchi faqat shunday bo'lmasa xam, ko'pincha jinslar o'rtasida yuz beradigan ishqiy munosabatlarda, ilk yoshlik muxabbatining dastlabki ko'rinishlarida ko'rtak yozadi.

### **Kishining kishi tomonidan idrok qilinishi.**

Muloqotning perseptiv tomoni kishining kishi tomonidan idrok qilish, tushunish va unga baxo berishdir. Boshqa kishilarni tushunib olish bilan kishi suxbatdosh bilan bo'ladigan faoliyat, aloqa istiqbolini aniqroq belgilab oladi.

Muloqot ishtiroqchilari o'z ongida bir-birlarining ichki dunyosini qayta tiklashga, xis-tuyg'ularini, xulq-atvorining sabablarini faxmlab yetishga xarakat qiladi. Shaxsga boshqa odamlarning faqat tashqi qiyofasi, ularning fel-atvori va xatti-xarakatlari, ular qo'llanadigan kommunikativ vositalargina bevosita in'om etilgan va ana shu malumotlarga tayangan xolda o'zi bilan muloqotga kirishgan odamlarning kimligini tushunib etish, ularning qobiliyatlari, niyatlari kabilar xaqida xulosa chiqara olish uchun muayyan ishni bajarishiga to'g'ri keladi. Taniqli psixolog S.L.Rubinshteyn shunday deb yozgan yedi: "Kundalik xayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo'ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi malumotlari moxiyatini guyo "o'qib", yani "mag'zini chaqib" chiqamiz, shu yo'sinda matnning ichki psixologik jixati mavjud bo'lgan

mazmunini aniqlaymiz. Bunday o'qish naridan beri tez yuz beradi, chunki atrofdagilar bilan muloqot jarayonida bizda muayyan darajada ularning fe'l-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no xosil bo'ladi."

Muloqotning perseptiv jixati - bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baxolanishi demakdir.

Muloqot jarayonida kamida ikki kishi ishtiroq etadi. Kishining qiyofasi, xatti - xarakati asosida suxbatdosh xaqida tasavvur xosil qilinadi. Bir-birini idrok qilishda quyidagi mexanizmlar g'oyat muximdir:

- a) identifikatsiya;
- b) refleksiya;
- v) kauzal atributsiya;
- g) stereotipizatsiya

Identifikatsiya so'zining manosi lotinchadan olingan bo'lib, "tenglashtirish", "aynan o'xshatish", bir kishining ikkinchi kishini uning ta'rifini subektning o'z tarifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o'xshatilishi orqali tushunish usulidir. Odamlar o'zaro birgalikda xarakat qilish vaziyatlarida boshqa kishini o'zining o'rniga qo'yib ko'rishga uringan xolda uning ichki xolati, niyatlari, o'y-fikrlari, mayllari va xis-tuyg'ulari xaqida taxmin qiladilar. Masalan, avgust oyi kunlaridan birida universitet qoshida xayajonlangan xolda kitobni varaqlayotgan abituriyentlarni uchratib qolgan talaba o'zining abituriyentlik davrini eslaydi, ularning ruxiy xolatini xayolan o'z boshidan kechira boshlaydi.

Refleksiya — (lotincha aks ettirish) - o'z fikr va kechinmalarini taxlil qilish va muloxaza yuritish, yani muloqotga kirishuvchining suxbatdosh uni qanday idrok etayotganligini anglash. Kishini kishi tomonidan idrok qilishini ikkilangan oynadagi aks ettirishga o'xshatish mumkin. Odam boshqa kishini aks yettirar ekan, shu bilan birga o'zini xam aks ettiradi, agar kishi o'zi muloqotga kirishadigan kishilar xaqida to'liq, ilmiy asoslangan axborotlarga ega bo'lsa, ular bilan bexato aniqlikda o'zaro ta'sir o'rnatishi mumkin. Biroq subekt xamma vaqt bunday aniq malumotga ega emas. Shuning uchun u boshqalar xatti-xarakatining sabablarini

o‘ylab chiqishga majbur bo‘ladi. Boshqa kishining xarakatlarini tushuntirish uchun faoliyat motivlari, xis-tuyg‘ular, intilish va fikrlashning o‘ylab chiqarilishi kauzal atributsiya deb ataladi. O‘qituvchilar tomonidan bola xarakatlarining shunday sababini talqin qilinishi maktabdagi pedagogik muomalani qiyinlashtiradi.

Kauzal atributsiya- boshqa kishining xatti-xarakatlari sababini xis-tuyg‘ularni, niyatlarni, o‘y-fikrlarni va xulq-atvor motivlarini unga to‘nkash yo‘li bilan tushuntirish bo‘lib, lotincha saisa-sabab va attributto - in‘om etaman degan ma‘noni bildiradi. Kauzal atributsiya ko‘pincha anglanilmagan xolda - yo boshqa kishiga o‘xshatish negizida, ya‘ni shaxsning o‘zi xuddi shunday vaziyatda u payqashi mumkin deb xisoblaydigan motivlar yoki xis-tuyg‘ularning boshqa birovga xosligi takidlangan paytda, yo muloqotga kirishgan sherikni o‘zlariga nisbatan bazi bir qolipdagi tasavvurlar xosil bo‘ladigan shaxslarning muayyan toifasiga kiritish yo‘li bilan yuz beradi. Kauzal atributsiyaning xususiyati psixologiya tomonidan yaxshi o‘rganilgan turli xildagi shart - sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, notanish kishini idrok etish chog‘ida idrok sub‘ekti ega bo‘lgan axborot katta rol o‘ynaydi. A.A.Bodalev o‘tkazgan tajribalarida ikki guruxdagi talabalarga bitta odamning fotosurati ko‘rsatilgan. Birinchi guruxga bu odam jinoyatchi sifatida tariflangan. Uni tashqi qiyofasiga qarab tavsifnoma berish so‘ralgan, ikkinchi guruxga bu odam taniqli olim deb aytilgan. Jinoyatchi deb aytilgan kishiga talabalar qo‘rs, badjaxl, beraxm, maqor kishining portreti turibdi deb, olim deb aytilgan gurux talabalari esa portretidagi ko‘zning o‘zi mexribon va dono, jonni fido qilib ishlaydigan kishi deb tariflandi. Chiroyli kishilar rasmlari berilganda xam xuddi shunday xolat yuzaga kelgan, yani chiroyli kishilar yaxshi, muloyim, aqlli deb baxolangan. Xunuk rasmlari kishilar esa qo‘rs, badjaxl, xudbin deb baxolangan. Demak, pedagogning idrok etish obekti xaqida oldindan bilib oladigan axboroti yanglish fikr va sub‘ektivizmning tarkib topishi uchun jiddiy asos xisoblanadi. Oreol yeffektining moxiyati shundan iboratki, kishi tomonidan qoldiriladigan umumiy ijobiy taassurot sub‘ektning idrok etish chog‘ida berilmagan fazilatlarini xam ijobiy baxolashiga sabab bo‘ladi.

## **1.2. Muomala turlari va ularning faoliyatdagi ahamiyati**

Har qanday fan boshqa fanlardan faqatgina mavzu bahsi yoki paydo bo'lish tarixi bilangina emas, balki faktik ma'lumotlar tuplash, u yoki bu goyani isbotlash uchun ishlatiladigan uslublari bilan ajralib turadi. Uslublar mukammalligi aslida nazariy taraqqiyotni, fan taraqqiyotini belgilovchi asosiy omildir.

Hozirgi zamon fanlarining taraqqiyoti shu bilan o'ziga xoski, ularda metodologik muammolarga qiziqish ancha yuqoridir. Buning bir qancha sabablari mavjud bo'lib, ular avvalo jamiyatda ro'y berayotgan keskin o'zgarishlarning sabablaridan biri hisoblangan fan-texnika taraqqiyoti maqsadlari bilan fan maqsadalarining uygunlashuvi, amaliyotning fan oldiga kuyayotgan talablari darajasining tobora ortib borayotganligi, tadqiqot qilish vositalarining murakkablashib borayotganligi va nixoyat har bir fanda ro'y berayotgan o'z tadqiqot prinsiplari va tekshirish usullarning qayta kurib chiqishga intilishning yakqol namoyon bo'layotganligidir.

Ijtimoiy psixologiya to'g'risida gapiriladigan bo'lsa, shuni alohida ta'kidlash lozimki, avvalo jamiyatning bu fan oldiga kuyayotgan talablari o'ziga xos bo'lib, bu talablar javob berish uchun uning tekshirish uslublari u darajada mukammal emasligidadir. Chunki shu davrgacha ijtimoiy psixologiyada kuzatilgan narsa shu bo'ldiki, bu yerda nazariy ishlar tadbqiqiy ishlardan ancha ko'pdir. Shuning uchun ham, G.M.Andreeva ijtimoiy psixologiyaning metodologik muammolariga tuxtalar ekan, uning bu boradagi intilishlari, vazifalari ko'pligini ta'kidlaydi. Metodologik muammolarga qiziqish, -deb yozadi u, - ijtimoiy psixologiyaning kuchsizligi emas, balki uning yetilish davriga kirganligining belgisidir.

"Metodologiya" tushunchasining ilmiy moxiyati nimada? Bu tushunchani turli nazariy qarashlardagi olimlar va turli tilda gaplashadiganlar turlicha shartlaydilar va tushunadilar. Masalan, Amerikalik psixologlar metodologiya deganda, tadqiqot jarayonida ishlatiladigan barcha tadqiqot uslublari va texnik jarayonlarini tushunadilar. Lekin "metodologiya" tushunchasi aslida uslublar yigindisidan kengrok tushunchadir. Hozirgi zamon yevropa mamlakatlaridagi olimlar, xususan, rus olimlari fandagi metodologiya deganda, ushbu fan falsafiy asoslari va nazariy

qonuniyatlaridan kelib chiqadigan bilimlar bilan tekshirishning konkret usullari majmuasini tushunadilar. Ya'ni, "metodologiya" tushunchasi "konkret metodlar" yoki texnik usullar tushunchalaridan kengrokdir.

Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologik muammolariga quyidagilar kiradi. Birinchidan, empirik ma'lumotlar muammosi, ya'ni kay turdagi ma'lumotlarni ijtimoiy psixologik ma'lumotlar sifatida kabul qilish mumkin. Chunki, bixevioristlar bunday ma'lumotlar sifatida ko'z bilan kurib qayd qiladiganlar, xulq-atvor shakllarni kabul qilishsa, kognitiv psixologiya vaqillari faqat ongga taalluqli bo'lgan belgilarini tushunadilar. Demak, har qanday tadqiqotchi ish boshlamay turib, avvalo nimani empirik birlik qilib olishini aniq tasavvur qilishi va uning nazariy jixatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bundan tashkari, tadqiqot birligi aniqlangan takdirida, qanday xajmdagi birliklar tadqiqotchini kanoatlantirishi masalasi ham muhimdir. Masalan, ijtimoiy psixologiya bo'yicha sof eksperimental ish qilinganda, ilgari sinalgan usul yordamida cheklangan mikdoridagi kishilar yoki guruhda tadqiqot o'tkazish mumkin - bu eksperimental ma'lumotlar deyiladi. Lekin, ba'zan tadqiqotchi ko'p sonli tekshiruvchilar bilan ish ko'radiki, bunda turli guruhlarni o'zaro takkoshlash bilan ma'lumotlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanadi. Bunday tadqiqotlar korrelyatsion tadqiqotlar deb ataladi.

Ikkinchi metodik muammo - bu u yoki bu ijtimoiy psixologik nazariya asosida qonuniyatlar yaratish va ilmiy taxminlar qilish muammosi. Ilmiy tadqiqot boshlashdan oldin tadqiqotchi ma'lum taxminlar yuritadi, lekin shu taxminlarning aniq chiqishi usha muammo bo'yicha pishik - puxta nazariyaning bir yo'qligiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham ko'pincha fan sohasiga endigina kadam kuygan yosh olim yoki tadqiqotchi gipotezalar-taxminlar bayon etishga qiynaladi, chunki ijtimoiy psixologiyada ayniyatlar ayrim, alohida tadqiqotlardan umumiy xulosa olish orqali tuzilmaydi, ya'ni deduktiv usul har doim ham qo'l kelavermaydi.

Uchinchi muammo - bu ijtimoiy psixologik muammolarning sifati masalasi, ya'ni qanday ma'lumotni sifatli, ishonarli deb atash mumkinligi masalasidir.

Sifat haqida gap ketganda, tadqiqotchining tadqiqot ob'ektini qanchalik to'g'ri tanlangani hamda tuplagan ma'lumotlarining ishonchliligini qanday usullar bilan tekshirganligi nazarda tutiladi.

Ba'zan tadqiqotchi tekshiruvchilarni taxminan, tartibsiz tarzda tanlaydi. Bu narsa uning representativlik qonunini buzganligi belgisidir. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan yana bir kamchilik - bu o'sha o'rganish ob'ektining xajmi yoki soni xususida. Chunki amaliyotda ko'pincha tekshiriluvchi qanchalik ko'p bo'lsa, ma'lumot shunchalik ishonchli bo'ladi, degan noto'g'ri fikr mavjud. Agar tadqiqotchi ish boshlashidan oldin, ayni maqsadlarini, vazifalarini tadqiqotning nazariy asosini yaxshi bilgan holda to'g'ri ilmiy taxminlar-gipotezalar ilgari surilgan bo'lsa, u kichikrok guruhda o'tkazgan eksperimentlarning ma'lumotiga ham ishonishi mumkin (masalan, hozirgi moddaga munosabatni talabalarning bir qancha akademik guruhida o'rganish mumkin).

Lekin tadqiqot uslubini-metodlarini to'g'ri tanlashda pilotaj-sinov tadqiqoti o'tkazishning ahamiyati kattadir. Unda usha gipotezalarning qanchalik asosliligini ham, metodikaning aynan maqsadga muvofiqligini ham, tekshiriluvchilar ob'ektining to'g'ri tanlanganligini ham ma'lumotlarning turg'unligi, ishonchliligini ham tekshirib olish mumkin. Bundan tashkari, shu bosqichda tadqiqotchi eksperiment yoki anketa o'tkazish uchun qo'lay vaziyat va vaqtni belgilash, o'z yordamchilarining ishga qanchalik yarokliklarini ham sanab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lekin asosiy tadqiqot o'tkazilgandan sung tekshiruvchi tuplagan ma'lumotlarning asosligi (validlilik), ya'ni tanlangan uslubining aynan shu sifatlarini tekshirishga qaratilganligini, ularning turg'unligini, ya'ni har qanday sharoitda ham shu metod yordamida va shu sharoitda ayni shu xildagi ma'lumot tuplashini va ma'lumotlarning aniqligini, ya'ni tanlangan uslub maqsadga iuvofikligini isbotlab berishi kerak.



## **2.2. Muomala tuzilishining o'rganilishi (L.S.Vigotskiy talqinida)**

Nutq o'zining fiziologik negiziga ko'ra, eshitish va xarakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Miya qobig'ida tashqi olam tomonidan bo'ladigan turli xil qo'zg'atuvchilar bilan so'zlarning talaffuz qilinishini boshqarib turadigan tovush paychalari, xiqildoq, til va boshqa azolar xarakati o'rtasidagi muvaqqat bog'lanishlar o'rnatiladi. Nutq ikkinchi signallar tizimi negizida amal qiladi. So'z, I.P.Pavlov fikricha, "signallar signali"dir. Nutqni dasturlashtirish - nutqiy ifodaning, yani kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning manaviy o'zagini tuzish - birinchi bosqich xisoblanadi. Ikkinchi bosqich - jumlaning sintaktik tarkibini tuzishdan iborat. Nixoyat, jumlaning ovoz chiqarib aytish boshlaydi, yani nutq real tarzda ruyobga chiqadi. Shunday qilib, "gapirish" jarayoni boshlanadi. Bu jarayon davomida kommunikator uzatilishi lozim bo'lgan axborotni kodlashtiradi. Resipient tinglash jarayonida olingan axborotning kodini ochadi. Bu kommunikator aytmoqchi bo'lgan so'zning anglab yetilishini taminlaydi.

Nutqiy fikr - muloxazani kodlashtirish va kodini ochish jarayonlari og'zaki muloqotda muvaffaqiyat keltiradigan aqliy markazlar va tizimlar saqlanib qolganda yuz beradi. Mabodo ushbu tizimlar ishida buzilishlar ro'y bersa, kishi nutqida turli xildagi buzilishlar - afaziyalar (so'zlashish va tushunish qobiliyatining yo'qotilishi) sodir bo'ladi.

XIX asrning o'rtalaridayoq olimlar miyaning bazi bir qismlari ishidagi buzilish nutqning buzilishiga olib kelishini kashf etgan edilar. Jumladan, P.Broka bemorlarda chap yarim sharning pastki peshona qismidagi burmalari orqali orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlangan xolda so'zlarni talaffuz yetishda buzilish ro'y berishini aniqladi. Keyinroq K. Vernike chap yarim sharning ustki chakka qismidagi burmalari orqa tomonining uchdan bir ulushi shikastlanganda so'zlarni tushunishning buzilishi xollarini tavsif qilgan yedi. Miya to'qimalarining ushbu qismlari xarakatlantiruvchi nutq ("Broka markazi") va nutqni tushunish ("Vernike markazi") "markazlari" deb yuritila boshladi. Lekin keyinchalik, asosan psixofiziologlar (A.R.Luriya, N.A.Bernshteyn, P.K.Anoxin va boshqalar) ning ilmiy ishlari tufayli nutqning fiziologik negizi miyaning aloxida qismlari ("Nutq

markazlari”) faoliyatidan ko‘ra ko‘proq yaxlit xoldagi miya faoliyatining murakkab tarzda tashkil topishidan iborat ekanligi aniq - ravshan bo‘ldi. Shunday qilib, nutq funksiyalarining jo‘shqin, yani anatomik tarzda emas, balki xarakatchan tarzda cheklanishi to‘g‘risidagi tasavvur tarkib topdiki, bu markaziy asab tizimining keng ravishda kompensatsiyalab turish imkoniyatlaridan foydalanishi munosabati bilan nutqning buzilishini to‘g‘rilashida juda katta axamiyat kasb etadi.

Noverbal (nutqsiz) kommunikatsiya vositalariga yuz ifodasi, mimika, oxang, pauza, poza (xolat), ko‘z yosh, kulgu va boshqalar kiradi. Bu vositalar verbal kommunikatsiya - so‘zni to‘ldiradi, kuchaytiradi va bazan uning o‘rnini bosadi. Bolgarlarda boshni qimirlatish yo‘q degani, ruslarniki teskarisi bo‘ladi. Turli yosh guruxlarida noverbal kommunikatsiya vositasi turlicha bo‘ladi. Masalan, bolalar ko‘pincha kattalarga ta’sir etish, ularga o‘z xoxish va kayfiyatlarini o‘tkazishda yig‘idan vosita sifatida foydalanadilar. Axborotni so‘z bilan bayon etishning mazmuni va maqsadiga noverbal kommunikatsiya vositalarining mos kelishi muomala madaniyatining bir turidir.

O‘rtog‘ining boshiga tushgan kulfatdan xabar topib, unga xamdardlik bildirayotgan suxbatdoshi nutqsiz kommunikatsiya belgilarini ishlatadi: yuzlarini g‘amgin tutadi, past oxangda, qo‘llarini yuziga yo peshonasiga qo‘ygan va boshini chayqagan xolda chuqur xo‘rsinib gapiradi va x.k.

Nutqsiz kommunikatsiyani amalga oshirish uchun turli xil yosh guruxlarida turlicha vositalar tanlanadi. Nutqsiz kommunikatsiyada qo‘llanilayotgan vositalarning axborotni so‘z bilan yetkazish maqsadlariga va mazmuniga muvofiqligi munosabat madaniyatining tarkibiy qismlaridan xisoblanadi. Bunday muvofiqlik xam og‘zaki va xam nutqsiz kommunikatsiya vositalari kasb faoliyatining quroli xisoblangan pedagog uchun juda muximdir.

Kishi extiyojlari azaldan agar u boshqa odamlar bilan birgalikda xarakat qilgan xolda o‘zaro munosabatga kirishgan taqdirdagina qondirilishi mumkin bo‘lib kelgan. Bu xol sub’ektda uning uchun nima muxim va axamiyatli ekanligini aytish extiyojini keltirib chiqaradi. Bola aniq - ravshan nutqni egallay boshlaydi, birinchi yoshning oxiriga yetganda buning dastlabki belgilari paydo bo‘ladi.

Murakkab talaffuzni talab qilmaydigan va oson aytiladigan “o-pa”, “bu-vi” kabi oxangdosh soʻzlar jumlasidandir. Katta yoshdagilar bu xamoxanglikni konkret shaxslarga – ona – ota – buviga bogʻlaydilar va bolaga ana shu oxangdosh soʻzlarning uning yaqin atrofidagi konkret shaxslar bilan bogʻlanishi qaror topishiga (“bu sening buving”) yordamlashadilar. Bola soʻzni talaffuz qilarkan, istaganiga erishishga - eʼtibor qilishiga, erkalatilishiga, oʻyinchoq kabilarga erishishiga intiladi. Soʻz aloqa vositasiga aylanadi. qoʻllaniladigan soʻzlar soni borgan sari toʻxtovsiz orta boradi va 2 yoshda bolalarning soʻz boyligi xaddan ziyod kengayibgina qolmasdan, balki ularning grammatik shakllarini toʻgʻri ishlatishi xam mumkin boʻlib qoladi, jumlar murakkablashib va uzunroq qilib tuzila boshlaydi. Bolaning tili maktab yoshigacha boʻlgan yillar davomida boyib boradi.

Maktabda oʻqish, yozish, keyinroq yesa til va adabiyot darslarida bolalarda muloqot vositasi sifatida tilga va munosabat jarayoni sifatida nutqqa ongli munosabat shakllantiriladi. Til oʻqituvchi tomonidan maxsus uyushtirilgan taxlil predmetiga aylangan xolda oʻquvchilar oldida ijtimoiy jixatdan shakllangan qonunlar taʼsiriga boʻysunadigan murakkab belgilar tizimi sifatida namoyon boʻladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda va oʻquvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini xosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu oʻrinda xam oʻqituvchining erkin xamda aniq-ravshan nutqi oʻquvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muxim shartlaridan xisoblanadi. Yuksak nutq madaniyati - oʻqituvchi tomonidan vaqtdan oqilona foydalanishning muxim shartidir. Demak, nutq faoliyati turli davrlarda oʻziga xos shakllanib, takomillashib boradi.

Muloqot maqsadlari kishilarning birgalikdagi faoliyati extiyojlarini aks ettiradi. Bu xol quruq safsatabozlikning, yaʼni fatik muloqotning, kommunikatsiya vositalarining birgina muloqot jarayonining oʻzini xosil qilishdan iborat yagona maqsad yoʻlida tuturuqsizlik bilan foydalanilishini mustasno etmaydi.

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga extiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi, yani kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nixoyat keng-mexnat intizomi xarbiy burch va vatanparvarlik xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy nazorat muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos xolda namoyon bo'ladi.

Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sotsial) mavqeni egallab turuvchi xar bir kishidan atrofdagilar kutadigan, normativ tomonidan maqullangan xulq-atvor namunasi tushuniladi. (Yosh, mansab, jins va oiladagi, o'qituvchi va o'quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mexmon yoki mezbon rovida namoyon bo'lishi mumkin). O'z navbatida xar bir rol o'ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo'lsa vrach ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota - onasining qobil farzandi, mexmondo'st oila boshlig'i bo'ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati rolli kutishlari bilan boshqariladi. Xoxlaydimi yoki yo'qmi atrofdagilar undan malum namunaga mos keluvchi xulq - atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa ijtimoiy-nazorat tomonidan baxolanadi, ozmi-ko'pmi cheklanishlar qilinadi.

Turli xil rollarni bajarayotgan kishilarning o'zaro birgalikdagi xarakati rollar extimoli bilan boshqariladi. Rolning qanday bajarilishi sotsial nazorat ostida bo'ladi, ijtimoiy jixatdan baxolanadi, namunadan chetga chiqish esa qoralanadi. Jumladan, ota-onalar mexribon, xushmuomala, bolaning aybiga nisbatan shafqatliroq bo'lishlari kerak-bu rollar extimoliga mos bo'lib tushadi va ijtimoiy jixatdan maqullanadi. Ammo atrofdagilarga ota-onaning xushmuomalaligi xaddan

oshib ketayotgani sezilib turadi va qoralanadi. Vaqti kelganda ota-ona bolaga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan bo‘lishlari lozim. Shunday qilib, o‘zaro birgalikda xarakat qilayotgan kishilar xulq-atvorining bir-birlaridan kutgan taxminlariga mosligi muloqot jarayonida muvaffaqiyatga erishishning zarur sharti xisoblanadi.

Kishining boshqalardan eshitishga yoki ularda ko‘rishga tayyor bo‘lgan narsani ulardan kutish mumkinligini bexato va aniq taxmin qilish qobiliyati, malakasi odob deyiladi. Odobsizlik-bu muloqot jarayonida muloqotga kirishganlarning o‘zaro birgalikdagi xarakatlarining izdan chiqishiga olib keladigan va ba‘zan mojaroli vaziyatlarni vujudga keltiradigan darajada buzilishi demakdir. Odobsiz xulq-atvor nisbatan beg‘araz tabiatga ega bo‘ladi. Pedagogik odobning tegishli aloqa o‘rnatish chog‘ida tarbiyachiga in‘om etadigan imkoniyatlaridan foydalanish o‘quvchining rivojlanishi uchun istiqbol yaratib bergan xolda uning shaxsini shakllantirish jarayonini ancha qulay sharoitlarda amalga oshirish imkonini beradi.

Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o‘zaro ta’sir etuvchi kishilarning xar biridan kutilayotgan xarakatlarga mos keluvchi xulq - atvor namunasini qo‘llanishidir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va undan nimani ko‘rishga tayyor ekanligini to‘g‘ri, aniq, xatosiz ko‘chira olish qobiliyati takt deb ataladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi kishilardan tashkil topganligini unutmasligi xar bir o‘quvchi shaxsini yetibordan chetda qoldirmasligi kerak. O‘quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo‘lsada yo‘qolishi, og‘ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

Bog‘lanish (lotincha bo‘lib, “yaqinlashish”) - muloqotga kiruvchilar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa bo‘lishini taqozo etadi. Bunga erishish va uni ko‘ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatga kirishuvchi shaxslarning o‘zaro bir-birlariga xurmati, ishonchidan iboratdir. Pedagog o‘quv - tarbiya ishi jarayonida o‘quvchilar bilan aloqa bog‘larkan, ulardan o‘qituvchi rolining o‘zi taqozo etadigan darajada izzat - ikrom kutadi. Agar pedagog o‘z tarbiyalanuvchilariga nisbatan ishonch va xurmat bilan munosabatda bo‘lsa, u xar

qancha qattiqqo‘l va talabchan bo‘lgan taqdirda xam, uning eng arziyas tanbexlari ta’sirli bo‘ladi. Talaba o‘qituvchining so‘zlarida o‘ziga nisbatan xurmat-e’tiborni sezmasa, juda asosli va mantiqan to‘g‘ri pand - nasixatlarni ko‘pincha loqayd qoldirishi mumkin.

O‘zini o‘zi xurmat qilish tuyg‘usi - bu aniq, lekin mo‘rt quoldir. Psixologik bog‘lanishning buzilishi esa shaxslararo mojaroga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayrim vaziyatlarda bir - birini inqor etuvchi qadriyatlar, vazifalar va maqsadlarning mavjudligini aks ettiruvchi pozisiyalar antagonizmi yuzaga chiqadiki, bazan bu o‘zaro adovatni keltirib chiqaradi - shaxslararo mojarolar sodir bo‘ladi. Mojaroning ijtimoiy mohiyati turlicha va shaxslararo munosabatlar negizini tashkil etadigan qadriyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Mojarolar bittasi noinsoflik qilgan ikkita o‘rtoqning to‘qnashuvi tusini oladi.

Birgalikdagi faoliyat jarayonida mojarolarning sabablari o‘rnida ikki xil toifadagi determinant, yani ashyoviy - amaliy kelishmovchiliklar va shaxsiy - pragmatik manfaatlar o‘rtasidagi tafovut maydonga chiqadi. Mojarolarning kelib chiqishiga muloqotga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikda xarakat qilishlariga g‘ov bo‘lgan va bartaraf etilmagan ma’naviy anglashilmovchiliklar sabab bo‘ladi. Munosabatdagi ma’naviy anglashilmovchilik - bu aytilgan talabning, iltimosning, buyruqning ma’nosi muloqot bog‘lashgan sheriklar uchun muvofiq emasligidir. Bu xol ularning o‘zaro xamjixatligi va birgalikda xarakat qilishi uchun to‘sqinlik tug‘diradi.

Agar pedagog talabalar psixologiyasini yaxshi bilsa, uni e’tiborga olsa, talabaning qiziqishlarini va e’tiqodini, yoshiga xos xususiyatlarini, ilgari egallagan tajribasini inobatga olsa, uning istiqboli va qiyinchiliklari bilan xisoblashgan xolda ish tutadigan bo‘lsa, manaviy anglashilmovchiliklarni bartaraf etish mumkin.

So‘zlar kishi ongining boshqa faktlari kabi mohiyatlarning umumiy tarzda qabul qilingan tizimidan tashqari aloxida xar bir kishi uchun xos malum darajadagi shaxsiyatga oid mazmun, qandaydir aloxida axamiyat kasb etadi. Mohiyatlar bilan shaxsiyatga oid mazmunning nisbati A.N. Leontevning asarlarida chuqur tadqiq etilgan edi: “Shaxsiyatga oid mazmunlar mohiyatlardan farqli o‘laroq...o‘zining

ortiqcha individualligiga, "nopsixologik" tarzda mavjudligiga ega emas. Agar tashqi sezuvchanlik subekt ongida moxiyatlarni obektiv olamning realligi bilan bog'lab tursa, shaxsiyatga oid mazmun yesa ularni uning ushbu olamdagi xayoti realligi bilan, uning sabablari bilan bog'laydi. Shaxsiyatga oid mazmun inson ongining g'arazlilikini yuzaga chiqaradi".

Demak, shaxslararo mojarolar o'z - o'zidan kelib chiqmas ekan, balki shaxslarning o'zaro kelishmovchiliklari, manaviy anglashilmovchiliklar, nizolar, ishga doir, shaxsiy nizolar natijasida kelib chiqar ekan.

## **II BOB. MUOMALANI XORIJIY VA RESPUBLIKA OLIMLARI TOMONIDAN O‘RANILGANLIK DARAJASI**

### **2.1. Muomala va bilish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi**

Muomala jarayonini tashkil etishda o‘zaro ta’sir ahamiyati. Muomala jarayoni shahslararo va guruhlararo munosabatlarning asosini tashkil etadi. Chunki, muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma’lumot almashib, o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar va bir-birlarini yanada aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shahslarning bir-birlarini tushunishlari va aniq idrok qilishlari muloqotning samarali kechishini ta’minlashga xizmat qiladi. Birgalikdagi muomala jarayonida ta’sir ko‘rsatish turlicha kechishi mumkin. Bu ta’sir muloqotga kirishuvchi shahslarning muloqot texnikasini qanchalik egallaganligi, ularda refleksiya darajasi qanchalik ifodalanganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, muloqotga kirishuvchi shahslar bir-birlarini qanchalik darajada idrok eta olishlari ham muhim bo‘lib hisoblanadi.

Undan tashqari, muloqotga kirishuvchilarning ijtimoiy mavqei, jamiyatda tutgan o‘rni, ularda ijtimoiylashuvning ifodalanishi darajasi, bilim saviyasi, dunyoqarashi, ma’naviyati va madaniyatligi ham muhim omillar sifatida ahamiyatlidir. Taniqli amerikalik olim Erik Bern (Leonard Bernshteyn) ning muloqotga kirishish texnikasi borasidagi konsepsiyasi diqqatga sazovordir. U muloqot sub’ektlarini uchta darajada, ya’ni: ota-ona, katta kishi va bola rovida tasvirlaydi va tasavvur qiladi. Unga ko‘ra har bir shahs o‘z amaliy faoliyatida ushbu uchta muloqot shaklini boshidan kechirishi mumkin. Biroq, ularning qaysisini qay vaqtda qo‘llash uning o‘ziga bog‘liq va barcha munosabatlardagi ziddiyatlar ushbu muloqot shakllarining mevasidir, deydi. Ijtimoiy psixologiyada o‘zaro ta’sir jarayoni ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga hos tomonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Muloqotning yosh bilan bog‘liq, kasb bilan bog‘liq, hududiy xususiyatlar bilan bog‘liq va ijtimoiy nufu‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlari mavjudki, ular o‘zaro ta’sir psixologiyasining etik (ahloqiy) tomonlarini tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish va ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aynan



Ushbu muloqot usullari va ularning maqbul qo'llanishi shakllariga bog'liqdir. Ushbu jihatlar muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, shahalararo va guruhlararo munosabatlar sifatini yuqori pog'onada saqlab turishga imkon yaratadi. Muloqot jarayonini tashkil etishda o'zaro ta'sir yaratadi. Muloqot jarayonini tashkil etishda o'zaro ta'sir muhim ahamiyatga ega. Bu esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan refleksiya, identifikasiya va stereotiplashish xususiyatlarining namoyon etilishi darajasiga qarab turlicha kechishi kuzatiladi. Shu bois, turli darajada shakllangan kichik guruhlarda guruhij jipslikning asosiy omili bo'lgan shahslararo munosabatlarning ijobiy tarzda namoyon etilishini ta'minlash uchun o'zaro ta'sirning samarali yo'laridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muloqot kishilarning xamqorlikdagi faoliyati extiyojlari asosida tug'iladigan ular o'rtasidagi aloqa rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot xamqorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siridir. Bunda faqat so'zlar emas, balki xarakter va xolatlar xam almashinadi. Masalan, sotuvchi bilan xaridor o'rtasida biror so'z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to'g'ri tushunishi muxim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o'zaro ta'sir) va perseptiv (o'zaro idrok qilish).

Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o'zaro munosabati va xamqorlikdagi faoliyatining tashkil etish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Muloqotning mazmuni - axborot almashish, o'qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o'quvchilar bilan o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarni o'qituvchi xamda o'quvchilar jamoasi o'rtasida munosabatlarni taminlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida bilish yoki baxolash tarzidagi axborot almashishda namoyon bo'luvchi o'zaro ta'sirdir.

Muloqotning o'zaro birgalikda xarakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa avvalo muloqot vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini taminlaydi. Uni bu maqsad uchun tanlangan so'zlar mohiyatiga ko'ra kodlashtirgan xolda axborotni malum qilayotgan kishi xam, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o'z xulq - atvorini o'zgartirgan xolda bu axborotni qabul qilayotgan kishi xam tushunadi.

A.V.Petrovskiy fikricha, axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (resipient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona tizimidan foydalanishlari, yani bitta tilda so'zlashishlari kerak. Mohiyat - belgining tevarak - atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo'lgan jixatidir. qurol odamlarning mexnat faoliyatini ifodalagani singari belgilar xam ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi.

So'zlar belgilari tizimi xayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi.

Til yordamida muloqotga kirishish tufayli borliqning aloxida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to'ldirilib turadi - o'y- fikrlarini ayirboshlash, axborot berish ro'y beradi. O'qituvchi u yoki bu so'zni ishlatganda uning o'zi xam, uning tinglovchilari xam yolg'iz o'sha bitta xodisani nazarda tutishadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar tizimi kishining bo'tun xayoti davomida rivojlanib va boyib boradi. Uni sobitqadamlik bilan shakllantirish o'rta ta'limning xam, oliy ta'limning xam markaziy bo'g'ini xisoblanadi. Demak, til bilan muloqot uzviy bog'liq xolda rivojlanib boradi.

Xamqorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli inson boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o'rnatishi, o'zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspekti - kommunikatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Biroq predmet yasash bilan birga inson o'zi yasagan predmetda o'zini "translyatsiya" qiladi, yani o'zini boshqalarda davom ettiradi. Xosil qilingan predmet (qurilgan bino, yozilgan qatorlar, o'tqazilgan daraxt) bir tomonidan faoliyat predmeti, ikkinchi tomondan inson o'zini ko'rsatadigan vositadir. Chunki bu boshqa kishilar uchun xosil qilingan. Shunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha xollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashkil etadi.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani taminlaydi, chunki uni axborot beruvchi xam, uni qabul qiluvchi xam birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (resipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks xolda bir-birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashishda bola onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o'z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida xosil qila oladi. Maktabda xam xuddi shunday bo'ladi, o'quvchi olam xaqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, yani til yordamida o'zlashtiradi. Bu yerda til o'zining muxim vazifalaridan birini bajaradigan, yani yashash vositasi ijtimoiy - tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, xar bir aloxida odamning ish-xarakati va faoliyatini ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda o'rtog'im uchrab menga: "oshxona yopilgan", deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu yerda til o'zining boshqa muxim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya usuli

yoki odamning xatti - xarakterlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Xar qanday kommunikatsiya, xar qanday munosabat suxbatdoshiga ta’sir qilishdan iboratdir.

Uchinchi, xar bir aloxida odamning ish - xarakterlari va faoliyatlarini xar bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning “shaxsiy” tajribasi, o‘z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o‘ziga xos aralashmasidan iborat. Odam xayvondan farqli o‘laroq, o‘z xarakterlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishning va umumiy fikriy masalalarni xal qilishning asosiy quroli tildir. Bu yerda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to‘qnash keldik. So‘z belgilar tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

Nutq faoliyati - odam tomonidan ijtimoiy - tarixiy tajribani o‘zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o‘rnatish o‘z xarakterlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Nutq faoliyati aloqa jarayonining o‘zidir. Nutq faoliyatining quyidagi turlari farqlanadi: faol va passiv nutq. So‘zlovchining nutqi faol nutq. Tinglovchining nutqi passiv nutq xisoblanadi. Nutq ichki, tashqi nutqqa bo‘linadi. Tashqi nutq - yozma va og‘zaki nutqqa, og‘zaki nutq yesa monolog va dialogik nutqqa bo‘linadi. Monolog - bir kishining o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqdir. Bu o‘qituvchining bayoni, o‘quvchining to‘laroq javobi, maruza va boshqalardir. Monologik nutq malum qiyinchiliklarga ega. Monologda gapirayotgan kishi fikrlarning aniqligiga, grammatik qoidalarning saqlanishiga, logika va aytilayotgan fikrlarning izchilligiga yetibor berish kerak.

Dialogik nutqqa nisbatan monologik nutq kechroq shakllanadi. Maktabda o‘quvchilarda monologik nutqni rivojlantirishga aloxida yetibor berishlari kerak. Ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasidagi nutq dialog deyiladi. Dialogik nutqda bayon qilinayotgan fikr ko‘p jixatdan undan oldingi fikrga bog‘liq bo‘ladi. Dialogik nutqda suxbatdoshlarga malum bo‘lgan ayrim so‘zlar tushirib qoldiriladi. Shuning uchun yozib olingan dialog boshqalarga unchalik tushunarli bo‘lmasligi mumkin. Dialogik nutqda xar xil turdagi shablonlar, yani odatlanib qolgan so‘z birikmasi ko‘p uchraydi (qoyil, marxamat qilib aytingchi).

Nutqning ichki nutq deb atalgan turi nutq faoliyatining aloxida turi xisoblanadi. Ichki nutq amaliy va nazariy faoliyatni rejalashtirish fazasi sifatida namoyon bo‘ladi. Biz so‘zni chala - yarim aytishimiz bilanoq tushunaveramiz. Ichki nutq ayrim og‘zaki nutq aktlaridan yuksakroq, xususan ixtiyoriylik darajasi ancha yuksakroq bo‘lgan og‘zaki nutqdan yuksakroq sodir bo‘lishi mumkin.

Yozma nutq monologik nutqning turlaridan biri bo‘lib, yozma nutq monologik nutqqa nisbatan batafsilroqdir. Yozma nutq tufayli kishilar to‘plagan tajribani avloddan avlodga yeng yaxshi tarzda yetkazish imkoniyati bor. Yozma nutq piktografiyadan minglab so‘zlar bir necha o‘nlab xarflar yordamida ifoda etilayotgan hozirgi zamon yozuviga qadar rivojlandi. Ko‘pincha bir narsani yozib qo‘yish - bu uni anglab olish va yeslab qolish demakdir.

## XULOSA

Inson shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhit (shaxslararo munosabatlar, o`zaro fikr almashish, hamkorlik)ning ahamiyati juda katta. Inson hech qachon bir o`zi jamiyatdan ajralgan holda mukammal shaxs bo`la olmaydi. U faqat odamlar orasida, jamiyatda tarbiyalangandagina komil inson bo`la olishi mumkin.

Biz o`z tadqiqot ishimizda shaxsining shakllanishi murakkab psixologik jarayon ekanligini, ulardagi holatlarning kelib chiqish sabablarini va psixologik xususiyatlarini o`rgandik.

Adabiyotlar tahlili va o`tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda o`smirlarning aksariyat qismida agressiv holat ko`zatilib, bu holat ularning o`z-o`ziga beradigan baholari hamda individual psixologik xususiyatlari bilan ham bog`liq degan fikrga kelish mumkin.

Ushbu muammoni hal etish uchun o`z vaqtida psixoprofilaktik, reabilitatsion va psixokorreksion ishlar olib borilmasa, agresiv holatlar so`ng ham yanada avj olib, o`z fikrini erkin bayon eta olmaslik, o`ziga ishonchsizlik, o`z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to`liq namoyon eta olmaslik holatlarini vujudga keltiradi. Natijada insonda sekin-asta xavotirlik va hadiksirash tuyg`ulari kuchayib, turli psixik bo`zilishlarga, nevrozga va hatto suitsidal holatlarga sabab bo`lishi mumkin.

Barkamol avlod shaxsning psixologik xususiyatlarida markaziy rolni motivatsiya doirasi bajaradi va u ehtiyojlar, qiziqishlar, e`tiqodlar va ma`naviy his-tuyg`ularda o`z aksini topadi. Yoshlarning hayoti va faoliyatida, shuningdek, tarbiyasida asta-sekin ustuvor va barqaror motivlar vujudga kela boshlaydi, ular shaxsning ijtimoiy shartlashgan yo`nalganligi va hayotiy pozitsiyasini qat`iy belgilash uchun xizmat qiladi.

Aksariyat hollarda o`smir shaxsining ijtimoiy shartlashgan xususiyatlari uning irodaviy faolligi yo`nalishini gavdalantiradi.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A.Karimov. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O`zbekiston”, 2011.
2. I.A.Karimov Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma`naviyat, 2008.
3. Adizova T.M. O`quvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari.- Toshkent, TDPU, 1997.
4. Karimova V.Psixologiya. O`quv qo`llanma. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti. “O`AJBNT” markazi, 2002.
5. Nishonova Z.T. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. Toshkent. Nizomiy nomli TDPU, 2004 y
6. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To`laganova Sh. Psixodiagnostika. O`quv qo`llanma. -Toshkent , 2008.
7. Davletshin M.G., To`ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2002 .
8. Jalilova S. “Shaxs va shaxslararo munosabatlarni o`rganishning proektiv metodikalari”, Toshkent, Nizomiy nomli TDPU, 2006.
9. Kamilova N.G. Muammoli o`smir: tashxis, tadqiqot metodlari. O`quv qo`llanma. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.
10. Karimova V.Psixologiya. O`quv qo`llanma. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. “O`AJBNT” markazi, 2002.
11. G`oziyev E. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik, 1- kitob Toshkent «Universitet» nashriyoti , 2002.
12. G`oziyev E., Holmuhammedov M., Ibroximov X. Psixologiya metodologiyasi. Psixolog mutaxassisligi uchun o`quv qo`llanma. Toshkent M.Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti, 2002.

### Internet kutubxona:

1. [www.google.uz](http://www.google.uz)
2. [www.psy.ru](http://www.psy.ru)
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.doc.uz](http://www.doc.uz)